

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JANUBIY XORAZMDA ILK SHAHARSOZLIK MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: dilnozaatadjanova14@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1492-286X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada janubiy Xorazm vohasining dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan o'zlashtirilishi masalasi arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot mil.avv. VII–VI asrlardan boshlab ushbu hududda shakllanib borgan madaniy va iqtisodiy jarayonlarni, jumladan Xumbuztepa kulolchilik markazining rivojlanishini, Xazarasp qal'asining tarixiy rolinini va mikrovoahalar tizimining vujudga kelishini qamrab oladi. Tahlil natijalariga ko'ra, janubiy Xorazm hududiga birinchi bo'lib O'rta Osiyoning janubiy viloyatlaridan kelgan aholi joylashgan va ular yuqori madaniy taraqqiyot va ilg'or texnologiyalarni o'zlari bilan olib kelganlar.

Kalit so'zlar: Janubiy Xorazm, Xumbuztepa, Xazarasp, ilk temir davri, kulolchilik, mikrovoahalar, arxeologiya, dehqonchilik.

ФОРМИРОВАНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ РАННЕЙ ГОРОДСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ЮЖНОМ ХОРЕЗМЕ

Атаджанова Дилноза Ганиевна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье на основе археологических и письменных источников анализируется процесс освоения Южного Хорезмского оазиса земледельческим населением. Исследование охватывает культурные и экономические процессы, формировавшиеся в регионе начиная с VII–VI вв. до н.э., включая развитие гончарного центра Хумбузтепа, историческую роль крепости Хазарасп и становление системы микрооазисов. По результатам анализа установлено, что Южный Хорезм был первоначально освоен группами населения, мигрировавшими из южных областей Средней Азии, которые принесли с собой высокий уровень культурного развития и передовые технологии.

Ключевые слова: Южный Хорезм, Хумбузтепа, Хазарасп, ранний железный век, гончарное дело, микрооазисы, археология, земледелие.

FORMATION AND DEVELOPMENTAL STAGES OF EARLY URBAN CULTURE IN SOUTHERN KHOREZM

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Independent Researcher.

Abstract.

This article examines the process of settlement and agricultural development of the Southern Khorezm oasis on the basis of archaeological and written sources. The study covers the cultural and economic processes that took shape in the region from the 7th–6th centuries BCE, including the development of the Khumbuztepa pottery center, the historical role of the Khazarasp fortress, and the emergence of the micro-oasis system. The findings indicate that the Southern Khorezm region was first settled by population groups migrating from the southern territories of Central Asia, who brought with them an advanced level of cultural development and progressive technologies.

Keywords: Southern Khorezm, Khumbuztepa, Khazarasp, Early Iron Age, pottery, micro-oases, archaeology, agriculture.

Kirish. Janubiy Xorazm vohasining dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan o'zlashtirilishi masalasi yozma va arxeologik tadqiqotlar doirasida ma'lum darajada o'rganilgan. Biroq bugungi kungacha yechimini topmagan muammolar mavjudligi tadqiqotchilarni shu mavzu atrofida ilmiy izlanishlarga undamoqda.

Asosiy muammolardan biri shundaki, Xorazm viloyati joylashgan hududda aholi uzluksiz yashab kelganligi sababli eng quyi madaniy qatlam yo'qolib ketgan yoki hali aniqlanmagan. Buning ustiga, Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda asosiy e'tibor janubiy Xorazm hududlarini o'rganishga emas, balki qadimda o'zlashtirilgan, keyinchalik esa tashlandiq bo'lib qolgan hududlarga — Qoraqalpog'iston va Turkmaniston respublikalari hududlariga to'g'ri keladigan joylarga qaratilgan. Bularga Oqchadaryo o'zani, Sariqamishning qadimiy o'zanlari, Dovdon, Daryoliqning o'rta va quyi oqimlari kiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi janubiy Xorazm vohasining ilk temir davridan boshlab qanday ravishda o'zlashtirilganligini, moddiy madaniyat yodgorliklarini tahlil etish va mavjud ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida ko'rsatib berishdan iborat. Tadqiqotda Xumbuztepa va Xazorasp yodgorliklari asosiy tahlil obyekti sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy metod, arxeologik yodgorliklarni stratigrafik tahlil qilish usuli hamda sopol buyumlarning morfologik va mezomorfologik tahlili asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi. Yozma va arxeologik manbalar sintetik tarzda tahlil qilindi.

S.B. Bolelov, S.R. Baratov va X. Matyoqubov kabi tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida bayon etilgan arxeologik ma'lumotlardan foydalanildi. Sopol idishlarning loy tarkibi mezomorfologik jihatdan tadqiq etildi va ularning 4 ta morfotipi aniqlandi. Yodgorliklarning davrlanishi mutaxassislar tomonidan ilgari surilgan tarixiy xulosalar bilan qiyoslab belgilandi.

Xazorasp qal'asida olib borilgan arxeologik qazishmalar 1959–1960-yillarda hamda 1996, 2002–2003-yillarda davom ettirildi va olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslandi. Sopol buyumlarning shakli, bezagi va ishlanish uslubidagi xususiyatlari asosida yodgorliklarning davriy mansubligi aniqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. S.B. Bolelov yozma va arxeologik manbalarni tahlil qilib, janubiy Xorazm vohasining dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tomonidan o'zlashtirilgan davrini ilk temir davrining ikkinchi bosqichi deb belgiladi. Olim Xorazm vohasining ilk temir davrini ikki bosqichga ajratdi. Birinchi bosqich **mil. avv.** VIII–VII asrlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu davrda janubiy Xorazm hududining dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirilganligiga doir arxeologik dalillar topilmadi. Ikkinchi bosqich esa **mil. avv.** VI–V asrlarni qamrab oldi va bu davrga oid dehqonchilik aholisining turar joylari janubiy Xorazmda aniqlanib, ular saqlanib qolgan sopol buyumlar orqali Xumbuztepa, Ko'zaliqir va Marg'iyona hududidagi Yoz yodgorligining II–III madaniy qatlamlari bilan o'xshashligi isbotlandi [1, S. 30].

Janubiy Xorazmda aniqlangan dastlabki arxeologik yodgorliklardan biri Xumbuztepa hisoblanadi. U Xorazm viloyatining Xazorasp shahridan 17 kilometr sharqda, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, bugungi kunda yodgorlikning 4,6 gektar maydoni saqlanib qolgan [2, S. 22]. Yodgorlik **mil. avv.** VI asrning boshlaridan III asrgacha faoliyat olib borgan; tadqiqotchilar uni yirik kulolchilik va diniy markaz sifatida e'tirof etadilar [4, B. 65–67].

S.R. Bolelov olib borgan arxeologik tadqiqotlar asosida Xumbuztepaning uchta qurilish bosqichi aniqlandi. Birinchi bosqich (XT-I) o'z navbatida ikki kichik bosqichga — XT-Ia va XT-Ib ga bo'linib, bu farqlanishning asosiy sababi sopol idishlarning ishlanish uslubidagi o'zgarishlar bo'ldi. XT-I bosqichida silindr-konik shaklda ishlangan, kesimda uchburchaksimon tarzda qayrilgan «tumshuqsimon gardish»li idishlar ustunlik qildi; bu turdagi idishlar Shimoliy Baqtriyadagi Qizil-II, Kuchuk-II va Tilla-II yodgorliklarida ham **mil. avv.** VIII asrning oxiri — VII asrga oid qatlamlarda uchraydi [1, S. 32].

Ikkinchi bosqichda (XT-II) qurilgan inshootlar ustida ibodatxona barpo etildi; bu davrda qizil angob bilan bo'yalgan silindr-konik shakldagi idishlar va tuvaksimon sopol buyumlar keng tarqaldi. Ularning bir qismi Marg'iyonadagi Yoz-II va Shimoliy Afg'onistondagi Tilla-II yodgorliklaridan topilgan idishlar bilan o'xshashligi aniqlandi [3, S. 127–128]. Uchinchi bosqichda (XT-III) **mil. avv.** IV asrning oxiriga kelib me'moriy inshootlar izlari yo'qoldi; madaniy qatlam esa sopol buyumlar siniqlariga va sopol toshqollarga to'lib ketgan.

S.R. Bolelov Xumbuztepadan topilgan kulolchilik o'choqlarining ishlanish uslubi Murg'ob vohasidagi yodgorliklar bilan o'xshash ekanligini aniqladi. Ko'zaliqir sopol buyumlari esa tashqi tuzilishi va loy tarkibi jihatidan Xumbuztepa idishlaridan butunlay farq qilishi isbotlandi.

Xazorasp qal'asi, tadqiqotchilar fikricha, ahamoniylar hukmronligidan avval qurilgan. 1959–1960-yillarda olib borilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlarda yodgorlikning eng pastki madaniy qatlami aniqlanmadi; faqat **mil. avv.** V asrga oid madaniy qatlam izlari topildi. Antik davrga oid qatlam 2,5 metr qalinlikda bo'lib, uning ostida arxaik davrga mansub qatlam mavjudligi aniqlandi. Yer osti suvlarining chiqishi tufayli quyiroq qatlamlarga tushish imkoniyati bo'lmadi [5, S. 157–201].

1996-yilda O'zR FA Arxeologiya instituti Xorazm arxeologik bo'limi **a'zolari** tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida **mil. avv.** I ming yillikning o'rtalariga oid sopol idish qoldiqlari topildi. Tadqiqotchilar bu yerda dastlab qishloq tashkil topgan va u **mil. avv.** VI–V asrlar chegarasida shaharga aylangan, degan xulosaga keldilar [6, S. 165–167]. 2002–2003-yillarda O'zbekiston FA Arxeologiya instituti va Xorazm Ma'mun akademiyasi hamkorligida olib borilgan tadqiqotlarda **mil. avv.** V–IV asrlarga oid madaniy qatlam ochildi; bu materiallar Xumbuztepaning tegishli davriga oid arxeologik topilmalar bilan o'xshashligini tasdiqladi [7; 8].

2002-yilda Xazoraspning shimoliy qismida ikkita stratigrafik shurf solinib, eng pastki qismdan qadimiy devor izlari aniqlandi. Yangi qurilgan kuchli himoya devori poydevori 10 metrni tashkil etgan bo'lib, devor va poydevor 40×40×10 dan 42×45×12–13 santimetrgacha bo'lgan **g'ishtlardan** qurilganligi qal'aning qayta qurilish davrini **mil. avv.** V–IV asrlarga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Qadimiy devorning paxsadan qurilganligi va to'g'ri burchakli burj hamda shinaklarga egaligi aniqlandi.

X. Matyoqubov **mil. avv.** VI asrga oid arxeologik yodgorliklarni tahlil qilib, janubiy Xorazmda mikrovohalar tizimini ajratib ko'rsatdi. Unga ko'ra, Xazorasp mikrovohasining markazi Xazorasp, Toshsoqa mikrovohasining markazi **Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat**

Xumbuztepa, Qo'shqa'l'a mikrovohasining markazi esa Qo'shqa'l'a 1 bo'lgan. **Mil. avv.** V asrda chap sohil Xorazmda Xiva mikrovohasi vujudga kelib, uning markazi Xiva Ichanqa'l'asi bo'lgan [9, B. 46–47].

Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida shakllanib borgan madaniy-xo'jalik markazlari quyidagilardan iborat bo'lgan: Darg'on massivi (markazi Jigarband qal'asi), Kaparas massivi (markazi Sadvar), Xazorasp dehqonchilik massivi (markazi Xazorasp shahri), Savkan markazi (markazi Olmaotishkan 1 shahri), Xeykanik markazi (markazi Xiva Ichanqa'l'asi), Yormish markazi (markazi Katqa'l'a shahri) va Voyangan markazi. Milodiy I ming yillikning boshida esa Tuproqqa'l'a massivi shakllanib, uning markazi Xazorasp Tuproqqa'l'asi bo'lgan [9, B. 46–47].

Olingan arxeologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, janubiy Xorazm hududiga birinchi bo'lib O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan — ehtimol Marg'iyona va Baqtriyadan — kelgan aholi guruhlari joylashgan. Ular Amudaryoning Sariqamishbo'yi o'zanining yuqori oqimi hududlariga ilg'or kulolchilik texnologiyasini olib kelishgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazmning **mil. avv.** VI asrga oid sinkretik madaniyat izlari topilgan. Unda Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya madaniyatiga xos moddiy topilmalar birgalikda uchraydi. Bu esa Quyi Amudaryo bo'ylarida urbanistik jarayonlarning boshlanishida janubdan kelgan aholining bevosita ta'siri bo'lganidan dalolat beradi.

Xazorasp qal'asi atrofida va Toshsoqa hududlarida arxaik davrga oid qishloqlarning topilishi hamda qal'adan 17 kilometr uzoqlikda Xumbuztepa kulolchilik markazining mavjudligi Xazoraspning markaziy shahar bo'lganligini tasdiqlaydi. Sharqshunos olim M. Is'hoqov "Xazorasp" so'zining etimologiyasini "**Avesto**" bilan bog'lab, bu shaharning vujudga kelish davrini zardushtiylik e'tiqodining yoyilishi bilan bog'liq, degan g'oyani ilgari surgan [10, B. 72–75].

Shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqot doirasida bir qator metodologik cheklovlar ham mavjud edi: yer osti suvlarining ko'tarilishi tufayli bir qator yodgorliklarning eng qadimiy qatlamlariga tushib borilmadi. Bu holat janubiy Xorazm vohasining o'zlashtirilishiga doir bir qator masalalarni hali ham ochiq qoldirib kelmoqda.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, janubiy Xorazm vohasining ilk o'zlashtirilishi **mil. avv.** VII asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni ilk temir davrining ikkinchi bosqichida boshlanib, bu jarayonda O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ko'chib kelgan aholining roli hal qiluvchi bo'lgan. Xumbuztepa kulolchilik markazi va Xazorasp qal'asi ushbu davrning asosiy moddiy madaniyat yodgorliklari sifatida voha iqtisodiy va siyosiy hayotining markazlarini tashkil etgan.

Mil. avv. VI–V asrlarga kelib, janubiy Xorazmda bir nechta mustaqil mikrovohalar tizimi shakllangan bo'lib, ular o'zaro bog'liq savdo va madaniy aloqalar negizida rivoj topgan. Tadqiqot natijalari Xorazm tarixi haqidagi bir qator avvalgi qarashlarga, xususan, Kir II bosqini bilan bog'liq migratsiya nazariyalariga tanqidiy ko'z bilan qarashga asos beradi.

Keyingi ilmiy tadqiqotlarda janubiy Xorazm hududining arxaik qatlamlarini yanada kengroq o'rganish, qazishmalarni chuqurlashtirish va zamonaviy tahlil usullarini qo'llash zarur. Bu esa vohaning o'zlashtirilishiga oid noaniq masalalarni oydinlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болелов С. Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. – С. 29–34.
2. Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. – С. 22.
3. Массон В. М. Древнеземледельческая культура Маргианы // Материалы и исследования по археологии СССР. – № 73. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 127–128.
4. Setmamatov M. B. va boshq. Xumbuztepa — Janubiy Xorazmning kulolchilik va diniy mafkuraviy markazi // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – 2014. – № 4. – B. 65–67.
5. Воробьева М. Г., Лапиров-Скобло М. С., Незарик Е. Е. Археологические работы в Хазораспе в 1958–1960 гг. – С. 157–201.
6. Мамбетуллаев М. М., Абдиримов Р. Исследование Хазараспа // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 165–167.
7. Баратов С. Р., Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме. – С. 43–44.
8. Сабилов К., Рузимов С. Археологические работы в Хазараспе // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2003. – № 3–4. – С. 108–109.
9. Matyoqubov X. H. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida qadimgi Xorazm. – B. 46–47.
10. Ishoqov M. M. Xazorasp. "Ming ot"mi... yo? // O'zbek tili va adabiyoti. – 1997. – № 1. – B. 72–75.